

XVI-XIX ASRLARDA YEVROPADA ARABSHUNOSLIK MAK TABI

(Nemis tarixshunoslari misolida)

Xoldarov Akmaljon

Farg'ona davlat universiteti
doktoranti

Annotatsiya:

XI-XIII asrlarda musulmon ilm-fan yutuqlarini o‘rganishni maqsad qilgan ispan va italyan olimlari safiga XVII-XIX asrlarga kelib, nemis olimlari ham qo‘shilishdi. Bu davrdagi nemis tarixshunoslida “Musulmon sivilizatsiyasi”, arab tilshunoslida doir ilmiy izlanishlar sezilarli tarzda ko‘paydi. Sharq falsafasiga oid arab tilidagi asarlarning nemis tiliga tarjima qilinishi tezlashdi. Arab tilshunoslari, oriyentalistlari, foklorshunoslari paydo bo‘ldi. Bu orqali “Rivojlangan davr” da yevropa xalqlari hayotida musulmon ilm-fan yutuqlarini amaliy tarzda qo’llash imkoni paydo bo‘lib, anchagina ijobiy ko‘tarilishlarga sabab bo‘ldi.

Аннотация:

На изучение достижений мусульманской науки XI-XIII вв. ставили своей задачей в основном испанские или итальянские ученые. К XVII-XVIII векам большую роль в этих исследованиях стали играть немецкие ученые. В этот период в немецкой историографии значительно расширились научные исследования «мусульманской цивилизации» и арабского языкознания. Ускорился перевод арабских трудов по восточной философии на немецкий язык. Появились арабские лингвисты, востоковеды, арабисты. Благодаря этому практическое применение достижений мусульманской науки в жизни европейских народов в «развитую эпоху» вызвало много положительных сдвигов.

Annotation:

To study the achievements of Muslim science in the 11th-13th centuries. mainly Spanish or Italian scientists set themselves the task. By the 17th-19th centuries, German scientists began to play an important role in these studies. During this period, scientific studies of the “Muslim civilization” and Arabic linguistics significantly expanded in German historiography. The translation of Arabic works on Eastern philosophy into German has accelerated. Arab linguists, orientalists, Arabists appeared. Thanks to this, the practical application of the achievements of Muslim science in the life of European peoples in the "advanced era" caused many positive developments.

Kalit so‘zlar: Arabiston, Germaniya, Erix Bryonli, arabshunoslilik, sharqshunoslilik “Musulmon renessansi”, Logan Fyuk, tarixshunoslilik, Vilgelm Fridrix.

XI-XIII asrlarda birinchilardan bo‘lib, xristian cherkovi islom dini va uning paydo bo‘lishini o‘rganish ishlariga boshchilik qildi. Arab tilidagi asarlarni tarjima qilish muammosini cherkov kutilmagan tarzda hal qilishga urindi. Cherkovlar tarkibida arab tili kurslari ochildi. Salib

yurishlarida ishtirok etgan ruhoniylar arab tili, suryoniy tilidan dars mashg'ulotlarini olib borishdi. Ilohiyotga oid ilmlarga e'tibor qaratgan cherkov yashirin maqsadini keyinchalik oshkor qildi. Islom dini vujudga kelishida xristian dinining ta'sirini o'rganishni maqsad qilgan ruhoniylar bir vaqtida musulmon madaniyati, arab adabiyotinining qiziquvchisiga aylanishdi. XVII-XVIII asrlarga kelganda esa Yevropada bu ishlarning davomchilari germaniyalik tilshunoslar, tarixchi-olimlar bo'lishdi. Usmonli turklar bilan siyosiy aloqalar yaxshilanishidan manfaatdor nemislar, o'z olimlarini sharqshunoslik xususan arab madaniyati, arab tili bilan shug'ullanishini qo'llab-quvvatlashdi. Usmonli turklarning boy kutubxonalarida saqlanayotgan arab tilidagi nodir qo'lyozma va adabiyotlarni o'zlashtirish ilinjida nemis olimlari arab tilini mukammal o'rganishardi. XVI asrning o'rtalarida lotin tilidagi arab grammatikasi kitobi chop etilgan bo'lsa, XVI-XVII asrlarda bu kabi qo'llanmalar Germaniyada ham paydo bo'la boshladi. XVIII asrda Germaniyada Sharq xalqlarining etnografiyasini o'rganish boshlab yuborildi. XIX asrda Qur'on va Injilni o'zaro taqqoslash boshlandi. Tilshunoslik va ilohiyotshunoslik sohasidagi harakatlar tabiiyki turli xil fanlarga oid adabiyotlarning erkin o'rganilishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi. Shu tariqa XVII-XX asrlar oralig'ida Germaniyada arab tili bo'yicha yirik tilshunos olimlar, ilohiyotshunoslar, arab xalqlari tarixi, islom dini tarixini o'rganuvchi tarixchilar, arab qo'lyozmalari mutaxasislari yetishib chiqdi. Mana shunday olimlardan biri Georg Vilgelm Freytag - (1788-1861) Go'ttingen universiteti talabasi- arab, fors turk tillarini o'rgangan. 1819-yilda esa Bonn universiteti professori bo'ladi. Arab tilshunosligi bo'yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib boradi. 1830-1837-yillar oralig'ida 4 jildlik "Arab-lotin tilshunoslik lug'ati" ni tayyorlaydi. Ushbu lug'at Freytagning ilmiy hayotida katta o'rinn tutadi. Bundan tashqari "Arablar xrestomatiyasi" (Bonn, 1834), "Arab she'riy san'atinining tasviri" (Bonn, 1830) kabi kitoblar yozgan. Asosan tilshunoslikka qaratilgan bu kitoblarda islom dini rivojlanishi, arablar, umuman musulmon olamining yutuqlarini ham e'tirof etadi. Nemis oriyentalisti, Go'ttingen universiteti professori, arab tilidagi ko'plab asarlar tarjimoni Genrix Ferdinand Vyustenfeld – (1808-1899). Arab olimlari va ularning ilmiy izlanishlarini o'rganish asosida - «Die Akademien der Araber und ihre Lehrer» kitobini 1837 yilda nashr ettirgan. 1840-yilda musulmon tabiblari va ularning davolash usullari bo'yicha «Geschichte der arabischen Arzte und Naturforscher» asarini yozadi [1: S.588].

Nemis olimlari ichida nafaqat tilshunoslik balki musulmon olimlari hayoti va ilmiy izlanishlarini o'rganganlar ham bo'lib, ulardan biri Yoxan Fukk-1921-yilda Frankfurtda Muhammad ibn Ishoq ilmiy me'rosi bo'yicha doktorlik darajasiga ega bo'ladi. Yoxan Fukk arab tili va ibroniy tillari bo'yicha mutaxasis hisoblanadi. XX asrning 30-yillarida G'arbiy Osiyo hududlariga safarlar uyushtiradi. Xususan, aholisini qisman musulmonlar tashkil etuvchi Bangladeshda arabshunoslik va islomshunoslik bo'yicha doktorlik darajasiga erishadi. Islom dini bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borgan Yoxann Fukk 1950-yilda "Arabiston, Arab tili va uslubi bo'yicha tadqiqotlar" (Arabiya : Untersuchungen zur arabischen Sprach- u. Stilgeschichte) kitobini yozdi, Yevropada XII-XIX asr boshlarida arab tili va adabiyotlari tarqalishi bo'yicha izlanishlar olib borib, bir qator maqolalar nashr ettirdi. Janubiy Osiyo davlatlari tarixi bo'yicha yana bir mutaxasis, Leypsig universiteti bitiruvchisi Fris Xommeldir. Eron va Bobil tarixi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borib, "Semit xalqlari va tillari" (1983),

“Bobil va Ossuriya tarixi” (Berlin 1885), “Janubiy Arabiston xalqlari xrestomatiyasi” (Myunxen 1893), “O‘rtasrlar tarixi” (Leipzig 1904) kitoblarini yozdi.

Vena, Oksford, Prussiyada faoliyati bilan tanilgan Moris Shtaynshneyder dastlabki bilimlarni otasi Yakob Shtaynshnayderdan oladi. Morisning Arab madaniyatiga qiziqishiga otasining do‘stlari bilan bo‘lib turadigan ilmiy uchrashuvlari ham ijobiyligi ta’sir o‘tkazgan. 6 yoshligida davlat maktabida o‘qishni boshlagan Yakov keyinchalik Pragaga ko‘chib o‘tadi. Yaqin do‘sti Avraam Benish bilan sionistik g’oyalarni targ’ib qilish bilan shug’ullanishadi. 1836-yilda Venaga qaytgan Moris, Leaopold Dyuks maslahatiga ko‘ra sharq adabiyoti va zamonaviy yahudiy bibliografiyasini qiziqish bilan o‘rgana boshlaydi. Vena universitetining katolik-teologiyasi fakultetida Yozef Kerle boshchiligidagi arab tili, suriya va yahudiy tillarini mukammal egallaydi. Berlinga qaytish istagida bo‘lgan Moris, siyosiy qarshiliklar tufayli bunga erisha olmaydi. Bu vaqt oralig’ida “Praga Zeitung” gazetasida muxbir sifatida ma’lum vaqt ish olib boradi. Shundan so‘ng Leypsig universitetida ilmiy izlanishlarini davom ettiradi. Genrix Leberexta va Moris Shtaynshneyderning hamkorligi ushbu universitetda ham davom etadi. Ayni shu vatqlarda Qur’oni karimni ivrit tiliga tarjima qiladi. Frans Delicha muallifligidagi “Es Xayim” kitobiga o‘z xissasini qo‘sadi. Leypsigdagi faoliyati davomida arab tili bo‘yicha maqolalar yozadi. 1848-yilda Prussiya fuqaroligini olgan Moris Shtaynshneyder Oksford kutubxonalarida saqlanayotgan ma’lumotlardan foydalanish huquqiga ega bo‘ladi. Falsafa, matematika fanlari oid musulmon olimlari erishgan natijalarini o‘rganish asosida “Farobiy- arab faylasuflari hayoti va ularning asarlari” nomli to‘plamni nashr ettiradi. “Farmakologiya asoslari”, Virxov arxividagi tibbiyot bo‘yicha ocherklarni o‘rganish bo‘yicha “Arxiv” nomli to‘plamlarida tibbiyot bo‘yicha arabcha yozuv va ma’lumotlarni taxlillaydi [4: S. 167, 171].

Tarixchi, sharshqshunos, islamshunos, davlat va jamoat arbobi Karl Bekker 1876-yilda Nederlandiyaning Amsterdam shahrida tug‘ilgan nemis millatiga mansub olim. Bobosi yirik tilshunos mutaxasisi Karl Ferdinand Bekker, otasi konsul lavozimida ishlagan Genrix Bekker. Nederlandiyaning Lozanna va Germaniyaning Geydelberg universitetlarining dinshunoslik fakultetini tugatgan. Berlin universitetida 1889-yilda falsafa fanlari nomzodi bo‘lgan Karl 1908-yildan boshlab Gamburg universitetida yangi tashkil etilgan “Old Osiyo madaniyati va tarixi” fakultetiga rahbarlik qila boshlaydi. Ayni shu yillarda Gamburda “Islom” jurnaliga asos solib, islam dini va arablar hayoti, madaniyatiga oid turfa xil maqolalar e’lon qiladi [5. S: 26] 1925-1930-yillar oralig’ida Prussiya ta’lim vaziri lavozimida ish olib borgan Karl Bekker qirol Vilgelmning eng ishonchli insonlaridan bo‘lgan. Prussiyada ta’limni isloh qilish va zamonaviy lashitirishda asosiy rolni bajargan. Keyinchalik Xitoy va Fransiyada ham turli xil lavozimlarda faoliyat olib boradi. Prussiyaning Yaqin Sharqqa bo‘lgan siyosiy qiziqishlari natijasida bo‘lsa kerak, siyosiy faoliyat bilan ilmiy izlanishlarini ham olib borgan. Shu asnodda Islom tarixiga oid bir necha kitoblar va maqolalar yozadi. Islom dinining davlatlar rivojlanishida tutgan o‘rnini bo‘yicha “Islom davrida Misr tarixi” (Strasburg 1902), asarida keng tadqiqotlarini e’lon qiladi. “Xristianlik bahslari va islam aqidalarining shakllanishi” (Maqola- Yaqin Sharq arxeologiyasi jurnali, 175-195-bet 1912-yil), “ Islomshunoslik. Islom olaming taraqqiyoti va tabiat haqida” 2-jild, Leyptsig 1924) shular jumlasidandir [6: S. 591].

Tarixchilar oilasidan bo‘lgan Helmut Ritter 1892-1971 yillarda yashab o‘tgani. Akalari tarixchi-Gerhard Ritter va ilohiyotshunos Berhard Ritter bilan Germaniya tarixshunosligi uchun katta

ilmiy xizmatlar qilishgan. Gamburg universitetida ish faoliyatini boshlagan Helmut Ritter, dastlabki yillarda mashxur nemis tarixchisi va san'atshunosi Abu Varburga assistentlik qiladi. I Jahon urushida Nemis qo'shini tarkibida janglar olib boradi. Iroq va Falastinga yurishlar davomida Yaqin Sharq madaniyati, tili, tarixi bilan yaqindan tanishadi. Shu tariqa arab tili, arab xalqlari tarixiga chuqur qiziqish natijasida urushdan keying davrda Gamburg universiteti sharq tillari kefedrasи mudiri lavozimida ish boshlaydi. 1926-yilda Helmut Ritter o'z ilmiy faoliyatini Istambulda davom ettiradi, ayni shu sabab islam dini tarixini tadqiq etishni boshlaydi. Xattoki, qisqa vaqt Usmonlilar imperiyasi saroyida xizmat qilish orqali juda ko'plab arab tilidagi qo'lyozmalarning asl nusxalari bilan tanishadi. Istambuldagи universitetlarda sharq tilshunosligi bo'yicha ma'ruzalar o'qiydi. Helmut Ritter sharq adabiyoti va tarixi bo'yicha keng ko'lamdagи ilmiy izlanishlari assosida Nizomiy (*Über die Bildersprache Nizami's.* 1927), Navbaxt (al-Hasan ibn Mūsā an-Naubāhtī. Die Sekten der Schia. (Edition des arabischen Textes). 1931.), Ahmad G'azzoliy (Ahmad Ghazzali: Aphorismen über die Liebe, hrsg. von Hellmut Ritter. 1942.), Fariduddin Attor (Das Meer der Seele. Mensch, Welt und Gott in den Geschichten des Farīduddīn 'Attār. Leiden 1955.), Jurjoniy (Die Geheimnisse der Wortkunst (Asrār al-balāgha) des 'Abdalqāhir al-Curcānī. Aus dem Arabischen übersetzt und mit Anmerkungen versehen von Hellmut Ritter. 1959) asarlariga sharhlar yozadi.

Turkiyadagi faoliyati davomida juda ko'p shogirdlarni ham yetishtiradi. Ulardan eng mashxurlari tarixchi - Fuat Sezgin va Ahmed Ateshlar Helmut Ritter davomchilari sifatida O'rta asrlar davriga oid qiziqarli izlanishlarini olib borishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Bernd-Ulrich Hergemöller: Mann für Mann. Biographisches Lexikon, Hamburg 1998, S. 588
2. Hellmut Becker: Portrait eines Kultusministers. Zum 100. Geburtstag von Carl Heinrich Becker (12. April 1976).
3. Fück J. Die arabischen Studien in Europe. — Leipzig, 1955. — S. 167, 171.
4. Erika Bleibtreu, Johannes Boese, Barthel Hrouda: Orientalistenleben. Kurzbiografien von E. F. Weidner, B. Meissner, E. Unger und F. Hommel. In: Alter Orient aktuell. Bd. 8, 2007, S. 26 f.
5. Ernst Weidner: Hommel, Fritz. In: Neue Deutsche Biographie (NDB). Band 9, Duncker & Humblot, Berlin 1972, ISBN 3-428-00190-7, S. 591 f.
6. Deutsche Nationalbibliothek Record #116514477 // Gemeinsame Normdatei—2012—2016.